



Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 - yil yanvar - mart

2020 - yilning yanvar – mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **51,6 %**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **29,9** birlikni tashkil qildi.

2020 - yilning yanvar – mart oylarida **4,5** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil qilindi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **29,3** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda - 1 973 ta, sanoatda - 558 ta, qurilishda - 407 ta, yashash va ovqatlanishda - 337 ta, aloqa va axborot - 191 ta, tashish va saqlashda - 144 ta tashkil etilgan.

2020 - yil yanvar – mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo
44,2 %



Sanoat
12,5 %



Qurilish
9,1 %



Axborot va aloqa
4,3 %



Yashash va
ovqatlanish
7,6 %



Tashish va saqlash
3,2 %

2020-yilning yanvar – mart oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019-yil	2020-yil	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	65 353	77 445	12 092
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	6 304	4 460	-1 844
YaHM	%	56,5	51,6	-4,9
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
Sanoat	%	57,8	51,0	-6,8
Investitsiya	%	51,0	59,5	8,5
Qurilish	%	67,9	75,1	7,2
Savdo	%	61,6	72,3	10,7
Xizmatlar	%	50,4	45,6	-4,8
Yuk tashish	%	66,9	76,3	9,4
Yuk aylanmasi	%	71,0	70,6	-0,4
Yo'lovchi tashish	%	76,3	76,2	-0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	81,9	83,1	1,2
Eksport	%	24,1	24,8	0,7
Import	%	69,2	61,1	-8,1



2020-yil yanvar – mart oylarida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020-yil yanvar – mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'p ulushi Chilonzor tumanida – 572 ta, Uchtepa tumanida – 567 ta, Yunusobod tumanida – 533 ta, Mirzo Ulug'bek tumanida bu ko'rsatkich – 472 taga yetdi. Shayxontohur tumanida – 455 ta va Olmazor tumanida – 415 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Bektemir tumanida – 134 tani tashkil etgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar, birlikda

	2019-yil Yanvar – mart	2020-yil Yanvar – mart	(+;-)
Toshkent sh.	6 304	4 460	-1 844
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	1 102	567	-535
Bektemir	285	134	-151
Yunusobod	675	533	-142
Mirzo Ulug'bek	496	472	-24
Mirobod	408	320	-88
Shayxontohur	616	455	-161
Olmazor	841	415	-426
Sergeli	348	312	-36
Yakkasaroy	359	338	-21
Yashnobod	401	342	-59
Chilonzor	773	572	-201



2020-yil yanvar – mart holatiga yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, % da



2020-yil yanvar – mart holatiga tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Chilonzor tumaniga – 12,8 % to'g'ri keladi. Uchtepa – 12,7 %, Yunusobod – 11,9 %, Mirzo Ulug'bek – 10,6 % va Shayxontohur – 10,2 %, ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2019-yil yanvar - mart	2020-yil yanvar - mart	(+;-)
Jami	6 304	4460	-1844
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	40	44	-4
Sanoat	868	558	-310
Qurilish	463	407	-56
Savdo	3 429	1 973	-1456
Tashish va saqlash	178	144	-34
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	329	337	8
Axborot va aloqa	166	191	25
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	66	72	6
Boshqa faoliyat turlari	765	734	31

Ma'lumot uchun: 2020-yilning yanvar – mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




**Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va
mikrofirmalar, birlikda**

	2019-yil yanvar–mart	2020-yil yanvar–mart	Farqi (+/-)
Toshkent sh.	6304	4460	-1844
<i>Tumanlar:</i>			
Uchtepa	1 102	572	-530
Olmazor	285	567	282
Chilonzor	675	533	-142
Mirobod	496	472	-24
Mirzo Ulug‘bek	408	455	47
Yunusobod	616	415	-201
Shayxontohur	841	342	-499
Yashnobod	348	338	-10
Bektemir	359	320	-39
Sergeli	401	312	-89
Yakkasaroy	773	134	-639


2020-yil yanvar – mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng ko'p o'sishi Olmazor – 282 ta, Mirzo Ulug‘bek – 47 tani ko'rsatdi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar tumanlar kesimida, birlikda




Toshkent shahrida yanvar - mart holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)





2020-yilning yanvar – mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 58,6 birlik, Bektemir tumanida 54,3 birlik, Mirobod tumanida 45,8 birlik. Chilonzor tumanida bu ko'rsatkich 39,8 birlikka yetgan. Mirzo Ulug'bek tumanida 30,9 birlik, Yunusobod tumanida 29,1 birlik, Uchtepa tumanida 27,1 birlikni tashkil etgan. Shayxontohur tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 21,4 birlikka to'g'ri keldi.

2020-yilning yanvar – martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020-yilning yanvar – mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 58,6 birlik, Bektemir tumanida 54,3 birlik, Mirobod tumanida 45,8 birlik. Chilonzor tumaning ko'rsatkichi 39,8 birlikka yetdi. Mirzo Ulug'bek tumani 30,9 birlik, Yunusobod tumani 29,1 birlik, Uchtepa tumani esa 27,1 birlikni tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni bo'yicha ko'rsatkichi (har 1000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'rinib turibdiki, Yakkasaroy tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Shayxontohur tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayish dinamikasi, yanvar – mart holatiga, % da

2020-yilning yanvar – mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 51,6 %ni tashkil qildi. (2019-yilning yanvar – mart oylarida 56,5 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020-yil yanvar – mart oylarida kichik tadbirkorlikning tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Toshkent sh.	51,0	75,1	45,6	59,5

tumanlar:

Uchtepa	72,2	95,5	91,1	56,8
Bektemir	53,4	90,5	56,9	97,9
Yunusobod	66,8	63,1	28,0	51,1
Mirzo Ulug`bek	42,1	66,2	63,9	54,7
Mirobod	35,5	68,5	55,5	59,6
Shayxontohur	47,7	90,7	80,1	50,2
Olmazor	85,3	54,2	44,5	57,1
Sergeli	78,5	94,1	55,6	67,8
Yakkasaroy	71,7	93,7	30,4	86,3
Yashnobod	24,6	81,8	70,2	82,0
Chilonzor	88,2	57,9	29,0	43,7

Hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha eng ko`p ulushi:

Sanoatda -

Chilonzor (88,2 %),
Olmazor (85,3 %)
Sergeli (78,5 %)


Qurilishda -

Uchtepa (95,5 %),
Sergeli (94,1%),
Yakkasaroy (93,3 %)
Shayxontohur (90,7%)

Xizmatlarda -


Bektemir (91,1 %),
Uchtepa (80,1 %),
Yakkasaroy (70,2 %),
Olmazor (63,9 %), va
Mirzo Ulug`bek (56,9 %)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020-yil yanvar - martda holatiga ko'ra







Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan tumanlar kesimida amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2020-yil yanvar – mart oylari holatiga tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi mahsulot (tovar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi eng ko'p ulushini Bektemir – 99,5 %, Uchtepa – 98,9 %, Chilonzor – 88,9 %, Yashnobod – 71,1 %, Yakkasaroy – 51,0 %, Sergeli – 47,2 %, Olmazor – 45,0 % va Mirzo Ulug'bek – 41,0 % ni, eng past ko'rsatkich Mirobod tumani – 2,4 % ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan tumanlar kesimida
amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jami
import hajmidagi ulushi, % da**

2020-yil yanvar – mart holatiga tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi mahsulot (tovar va xizmatlar) importining jami importdagi eng yuqori ulushi Uchtepa tumani – 94,1 %, Yakkasaroy tumani – 73,8 %, Bektemir tumani – 72,4 %, Chilonzor tumani – 70,4 %, Yashnobod tumani – 68,1 %, Sergeli tumanida – 66,4 % va Olmazor tumanida – 64,1 %ga yetdi. Eng past ko'rsatkich Mirobod tumanida – 25,7 %, Yunusobod tumani – 30,3 % va Shayxontohur tumanida – 38,1 % ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar – mart oylarida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Tumanlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yashnobod (1 078,7 mlrd. so'm), Yunusobod (924,9 mlrd. so'm), Olmazor (923,0 mlrd. so'm), Bektemir (831,7 mlrd. so'm) va Sergeli (665,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Mirobod tumanining (455,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020-yil yanvar – mart holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tumanlar bo'yicha ulushi, % da



Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chilonzor tumani (88,2 %), Olmazor tumani (85,3 %), Sergeli tumani (78,5 %), Uchtepa tumani (72,2 %), Yakkasaroy tumani (71,7 %), Yunusobod tumani (66,8 %) va Bektemir tumani (53,4 %) tashkil etdi. Yashnobod tumanida (24,6 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




2020-yilning yanvar – mart oylarida tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o`shish sur`ati



Tumanlar kesimida eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Yunusobod (814,2 mlrd. so'm), Chilonzor (751,8 mlrd. so'm), Uchtepa (739,9 mlrd. so'm), Shayxontohur (722,7 mlrd. so'm), Chilonzor (597,6 mlrd. so'm), va Mirzo Ulug'bek (546,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020-yilning yanvar – mart oylarida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Shayxontohur (645,8 mlrd. so'm), Mirobod (594,3 mlrd. so'm), Yunusobod (509,3 mlrd. so'm), Yashnobod (466,7 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (428,1 mlrd. so'm) hamda Yakkasaroy (356,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.





2020-yilning yanvar – mart oylarida tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`sish sur`ati




Tumanlar bo`yicha eng ko`p xizmatlar hajmi Mirzo Ulug'bek (976,9 mlrd. so'm), Yunusobod (932,6 mlrd. so'm), Shayxontohur (923,3 mlrd.so'm), Chilonzor (838,0 mlrd.so'm), Mirobod (801,6 mlrd. so'm), Yakkasaroy (689,9 mlrd. so'm) va Uchtepa (660,7 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushum mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **4 057** tadan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoatdagi ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0,4 % (18 ta), sanoatda – 19,0 % (770 ta), qurilishda – 7,0 % (282 ta), savdoda – 30,0 % (1 219 ta), xizmatlar sohasida – 43,6 % (1 768 ta).

* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2020-yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020-yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020-yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy holat xizmatlar sohasida 0,6 punktga, savdoda 2,0 punktga, oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan sanoat va savdo faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasi 1,2 punktga, sanoat sohasida 0,6 punktga, qurilish sohasida 2,7 punktga va savdo sohasida 1,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining kamayishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020-yillar I choragi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020-yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'paygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qurilish korxonalari 0,9 punktga, savdo sohasi 1,2 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi kamaygan.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 1,2 punktga, sanoat sohasida 0,5 punktga, savdoda 1,5 punktga, qurilishda 1,1 punktga kamaygan.


Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019-2020-yillar I choragi bo'yicha iqtisodiy vaziyatning yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020-yil I choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi. Unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 487 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 59 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 12,1 %), qurilish – 46 ta (9,5 %), savdo – 211 ta (43,3 %), xizmatlar – 167 ta (34,3%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 4 ta (0,8 %)ni tashkil etadi.


2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha o'sishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish korxonalarini 11,1 punktga, sanoat sohasida 8,3 punktga, savdo sohasida 5,9 punktga, xizmatlar sohasida 13,7 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

2019-2020-yillar I choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020-yil I choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 21 punktga, qurilishda 29,5 punktga, savdoda 24,8 punktga ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlarda 0,5 punktga, qurilish korxonalarida 2,0 punktga ko'paydi.

2019-2020-yil I choragida yangi tashkil etilgan korxonalarining yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

